

SEL! KELISH XAVFI

SEL-

katta miqdorda

tog' toshlari, qum va tuproq jinslari bilan birgalikda tog'dan oqib tushuvchi suv oqimi.



Sel oqimining tez fursatda shakllanishi va uning tezligini hisobga olgan holda, xabar tarqatish va muhofaza tadbirlarini bajarish uchun vaqt juda cheklanganligini (bir necha daqiqadan 10-20 daqiqagacha bo'lishi mumkin) doimo yodda tutish lozim.

SEL KELISH XAVFI BO'LGAN VAZIYATDA QO'LLANILADIGAN HARAKATLAR:



Sel oqimlaridan faqat qochib qutilish mumkin. Sel xavfi to'g'risida xabar eshitgandan so'ng darhol xavfsiz joyga ko'chish harakatlarni qilish kerak.

Sel oqimidan xalos bo'lishning iloji bo'lmasa, balandroq tepalik ustiga, daraxtga yoki biror balandroq moslamalar ustiga chiqib olish kerak. Odatda sel 3-5 soat davom etishi mumkin.



Sel oqimi o'tgandan so'ng devor va ustun larning holatini, gaz, elektr va suv ta'minoti tizimlari sozligini tekshirish zarur

